# BYUROKRATIYA VA JAMIYAT

***Xonxo'jayev Ozodbek***
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*
*magistratura talabasi*
*E-mail: oxonxojayev@icloud.com*
*Tel: +998 90 376 38 36*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada byurokratiya va uning jamiyat hayotidagi o'rni, rivojlanishi va zamonaviy boshqaruv tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola byurokratiyaning faqat qog'ozbozlik emas, balki davlatni tartibli, qonuniy va samarali boshqarishning asosi ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar, elektron hukumat tizimlari va ma'muriy islohotlar orqali byurokratik tizimning zamon talablariga moslashuvi, xodimlar va jamiyat o'rtasidagi aloqalarning muhimligi yoritilgan. Maks Veber nazariyasi, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarining tarixiy tajribalari misolida byurokratiyaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarga bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqola byurokratiyaning demokratik boshqaruv, samaradorlik va raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashib, davlat boshqaruvini mukammal shaklga keltirishdagi rolini ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *byurokratiya, davlat boshqaruvi, qog'ozbozlik, raqamlashtirish, ma'muriy islohotlar, jamiyat, demokratiya, Maks Veber, samaradorlik, elektron hukumat, iyerarxik tuzilma.*

# BUREAUCRACY AND SOCIETY

***Khonkhujaev Ozodbek***
*Master's student of*
*The university of world economy and diplomacy*
*e-mail: oxonxojayev@icloud.com*
*phone: +998 90 376 38 36*

***Abstract:*** *This article analyzes the role of bureaucracy in social life, its development, and its significance within contemporary governance systems. The article demonstrates that bureaucracy is not merely formalism, but the foundation for orderly, lawful, and effective state administration. Furthermore, it examines the adaptation of bureaucratic systems to modern demands through digital technologies, e-government platforms, and administrative reforms, highlighting the importance of interactions between civil servants and society. Drawing on Max Weber's theory and*

*the historical experiences of Germany and other European countries, the article explores the dependence of bureaucracy on social, political, and cultural factors. It elucidates the role of bureaucracy in harmonizing democratic governance, efficiency, and digitalization processes, thereby contributing to the optimization of state administration.*

***Keywords:*** *bureaucracy, state governance, formalism, digitalization, administrative reforms, society, democracy, Max Weber, efficiency, e-government, hierarchical structure.*

## БЮРОКРАТИЯ И ОБЩЕСТВО

***Хонхужаев Озодбек***
*Студент магистратуры*
*Университета мировой экономики и дипломатии*
*E-mail: oxonxojayev@icloud.com*
*Тел: +998 90 376 38 36*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль бюрократии в жизни общества, её развитие и значение в современной системе управления. Статья показывает, что бюрократия является не просто формальностью, а фундаментом для упорядоченного, законного и эффективного управления государством. Кроме того, рассматриваются адаптация бюрократической системы к современным требованиям через цифровые технологии, электронные государственные сервисы и административные реформы, а также важность взаимодействия между государственными служащими и обществом. На основе теории Макса Вебера и исторического опыта Германии и других европейских стран анализируется зависимость бюрократии от социальных, политических и культурных факторов. Статья раскрывает роль бюрократии в гармоничном сочетании с демократическим управлением, повышением эффективности и процессами цифровизации, способствуя совершенствованию государственного управления.*

***Ключевые слова:*** *бюрократия, государственное управление, формализм, цифровизация, административные реформы, общество, демократия, Макс Вебер, эффективность, электронное правительство, иерархическая структура.*

## Kirish

Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda raqamli texnologiyalar, innovatsion yutuqlar joriy etilishi bir qatorda davlat xizmatlarini raqamlashtirish siyosati ham keng miqyosda olib borilmoqda. Jumladan O‘zbekistonda ham elektron hukumat tizimini tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Mamlakatimizda davlat xizmatlarini raqamlashtirish doirasida aholiga xizmat ko‘rsatadigan bir qator elektron davlat xizmatlari yaratilgan bo‘lib, bular sarasiga “my.gov.uz, data.egov.uz, regulation.gov.uz, birdarcha.uz” kabi portallarni misol qilib olish mumkin [6]. Shu zayilda aholi orasida byurokratiya ya’ni qog‘ozbozlik deb ataladigan davlat boshqaruv tizimi asta sekin yo‘q bo‘lib bormoqda deb atash mumkinmi? Aslida davlat idoralarida hujjatlashtirish ishlari qog‘ozda yuritilishi aholiga to‘g‘ri va sifatli xizmat ko‘rsatish uchun qilingan oqilona yo‘l edi, faqatgina raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va zamonaviy texnika yutuqlaridan foydalanib xizmat ko‘rsatishni yaxshilash hukumat ishini ham yengillashtirdi. Xolbuki bu hukumat idoralarida ko‘plab ish o‘rinlarining qisqartirdi va davlat uchun ortiqcha xarajatni oldini oldi. Masalan, hujjat yuritish bo‘yicha mutaxassislar va arxiv xodimlari sonini keskin qisqartirdi, chunki ularning ishini elekton tarzda bajarish imkoni paydo bo‘ldi. Shu bois avval qog‘ozlarda qayd etiladigan idoraviy ma’lumotlar va hujjatlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, faqatgina elektron shaklga o‘tkazilgan xolos deb talqin qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

## Asosiy qism

Byurokratiya asli tarjimada hukumat idorasi degan ma’noni bildirib, uni hech qanaqa qog‘ozbozlik degan mavhum atama bilan atash noto‘g‘ri. Qog‘ozbozlik atamasini esa shunchaki hujjatlashtirish degan nom bilan to‘g‘ri ma’noda talqin qilish uning asl ma’nosini ochadi. Hujjatlashtirish davlat ishini yuritishda eng muhim jihat hisoblanadi, chunki ma’lumotlarni ma’lum bir ma’noda hoh elektron hoh qog‘oz shaklda saqlash shu ma’lumotning aslligini qonuniylashtiradi. Byurokratiyada bu ish bilan ya’ni aholi ma’lumotlari va ularning qonuniyligi kafolatlari bilan faqat davlat xizmatchisi shug‘ullana olishi hukumatning to‘liq aholi ustidan o‘z nazoratini o‘rnatganini bildiradi. Agar ma’lum bir sohada davlat aralashuvi bo‘lmasa, demak bu sohada davlatning idoraviy salohiyati pastligini ko‘rsatadi. Shu sababli hukumat zamonaviylashib borayotgan dunyoda zamon talablariga mos ravishda yangidan yangi xizmat yo‘nalishlarini tashkil etishi va bu orqali har jabhada fuqarolar ustidan nazoratni ushlab turishni ko‘zda tutadi. Bunga misol tariqasida O‘zbekistonda yaqin yillarda kripto valyutaning kirib kelgani va bu bozor munosabatlariga kattagina ta’sir ko‘rsatadigan sohada tezda davlat nazoratining o‘rnatilganini ko‘rishimiz mumkin [7].

Shu joyida savol tug‘ilishi tabiiy: Agar byurokratik davlat har qanday yo‘nalishda o‘z kuchini ko‘rsatishni nazarda tutsa, nima sababdan xususiy sektor uchun keng yo‘l ochilmoqda? Bu savolga javob juda oddiy: xususiy korxona ochish uchun davlat litsenziya berishi, uning vakolatini qobig‘idan chiqib ketmasligi uchun doimiy ravishda qonun doirasida idora qilishi uning hukumatdan mustaqil emasligini isbotlaydi. Shunday ekan byurokratiya deganda faqatgina ma’lum bir hajmdagi yoki o‘lchamdagi subyektni tushunish xato. U doimiy ravishda davlat, hukumat tepasiga turgan shaxslar, siyosat darajasidagi aholi elita qismining manfaatlari va deyarli kam miqdorda jamiyat foydasini ko‘zlaydi.

Byurokratik boshqaruv tiziming tarixiga yuzlanadigan bo‘lsak, Maks Veber nazariyasiga ko‘ra byurokratiya feodalizmning o‘rniga shakllangan va hozirgi kunda o‘ziga xos mukammal boshqaruv tizimi hisoblanadi. Dastlab Germaniyada Otto fon Bismark davrida Prussiyani kuchli, siyosiy jihatdan qudratli davlatga aylantirgan, keyinchalik Germaniyani birlashtirib dunyoda tengsiz o‘sishga olib boshgan narsa bu byurokratiyadir. Bu haqida so‘z borar ekan 1964-yilda Arendtning ikkinchi jahon urushida yaxudiylar qirg‘inida katta rol o‘ynagan Adolf Eichmanni yovuz emas, balki o‘z xizmat vazifasini mukammallik bilan bajargan oddiy davlat xizmatchisi sifatida tasvirlashini yodga olishimiz kifoya [2; 68-bet]. Yokida, kuchli tizimlashtirgan davlatni qurishga erishgan “Temir kansler” Otto fon Bismarkning ishdan olinishi o‘sha davrdagi davlat xizmatchilari uchun oddiygina qaralishi byurokratiyaning nechog‘lik qudratli kuch ekanligini ko‘rsatadi [4; 55-bet]. Veber mana shunday qudratli boshqaruv tizimi nima uchun Yevropaning boshqa rivojlangan mamlakatlarida, jumladan Angliya yoki Fransiyada emas balki Germaniya hududida shakllanganini madaniy omil nazariyasi bilan izohlaydi [5; 90-bet]. Unga ko‘ra XVI asr boshida butun Yevropani larzaga keltirgan xristianlikning uchinchi tarmog‘i ya’ni protestantlikning shakllanishi aholining diniy, madaniy va dunyoviy qarashlarini asta sekin o‘zgartirib bordi. Buning natijasida feodal jamiyat, yerga egalik qilish bilan asoslanadigan davlat boshqaruv shakli yangicha dunyoqarashli xalqning ongida yaxshiroq tuzum bilan almashtirilishi kerak degan g‘oyaning shakllanishiga olib keldi va natijada uch asrdan keyin to‘liq yangi madaniy ruhda bo‘lgan nemis jamiyatida yangicha boshqaruv tizimi – byurokratiya shakllandi.

Bundan shuni anglash mumkinki, byurokratiya bu feodalizm davridagi imtiyoz, elita qatlamning boshqa shaxslarga nisbatan ustunroq turishi tamoyillarini cheklaydigan, hukumat idoralariga ularning mulk senzi yoki qarindoshlik aloqalari orqali ishga kirishi va davlatni idora qilishiga yo‘l qo‘ymaydigan, ma’lum bir qatlamning manfaatlari uchun xizmat qilmaydigan, bir so‘z bilan aytganda jamiyatdan ajralgan va ayni paytda shu jamiyatni boshqaradigan tizimdir. Byurokratiya hamma joyda bor — katta-kichik tashkilotlarda, davlatlarda, tizimlarda

[2; 69-bet]. Bu tizim ichiga kirish uchun ana shu tizim azo‘si bo‘lishingiz kerak. Hozirgi kunda jamiyatshunos olimlar ham mana shu tizim boshqaruvi ichida yashayotganliklari va shu tizimni tahlil qilishga urinayotganliklari achinarli. Chunki uni xolis tahlil qilish va aniq ma’lumotlar olish uchun ham tashqaridan baho berilishi, ham ichkarida turib ma’lumotlarni o‘rganilishi lozim.

Byurokratiyaning jamiyat bilan eng muhim bog‘liqlik tarafi uning demokratiya bilan yonma-yon yurishidir. Mamlakat hayotida yuqori elita vakillari asosiy kuch bo‘lib qolgan sharoitda demokratiya ham, byurokratiya ham shakllanmasligini rivojlangan o‘rta asrlar Angliyasi misolida ko‘rish mumkin. Dastlab Germaniyada shakllangan byurokratiya anchayin monarxik boshqaruvni cheklagani bois tezlik bilan Yevropaga tarqalgan. Lekin o‘sha davr Angliyadagi elita qatlamining katta kuch sifatida hokimiyatda turishi byurokratiyani va shu asnoda demokratiyani ham cheklagan. Biroq jamiyatning o‘z haq-huquqlari uchun kurashi ozchilik hokimiyatini zavol topishiga va o‘z navbatida demokratiya, uning izidan byurokratiyaning inglizlar yeriga yetib borishiga sabab bo‘ldi.

Tuzilish jihatidan mukammal ko‘rinishda bo‘lgani bois byurokratik boshqaruv tizimi hozirgi kunda ham yashab, rivojlanib kelmoqda. Undagi shaxslar shunchaki davlat xodimi emas, balki bu mexanizm ichidagi tizimning bir bo‘lagidir. Tashkiliy tuzilma masalalarini ko‘rishda, tashkilotning bir qismidagi xodimlarning harakatlari boshqa qismlarda bajarilayotgan ishlar bilan qanday bog‘liqligini hisobga olish muhimdir. Tashkilotni aniq byurokratlarga yuklatilgan vazifalar va ular hosil qilgan natijalar orqali tasavvur qilish mumkin. Davlat yoki xususiy sektorda bo‘ladimi iyerarxik tarzda idoraviy ishlarning tashkil etilishi tepadan pastga qarab bo‘ysunish va mas’uliyat bilan vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Shu sababli bu tizim ichiga kirgan xodim o‘z-o‘zidan chiqib ketishga yoki vazifasini suiste’mol qilishga haqli emas. Ularni jamiyatdan ajratish va faqat davlat manfaatlari uchun xizmat qilishga ixtisoslashuvi bizning yuqoridagi “byurokratiya – jamiyatdan ajralgan, biroq shu jamiyatni boshqaradigan tizim” degan fikrimizni isbotlaydi. Shunday qilib, tizim yondashuvi nuqtai nazaridan qaraganda, shaxslar, ularning bajaradigan vazifalari va tashkilotlar o‘rtasidagi murakkab aloqalar, shuningdek, vazifalarni taqsimlash, muvofiqlashtirish va natijalarni umumlashtirish jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, individual darajadagi samaradorlikni tashkilot darajasidagi umumiy natijalarga qanday aylantirish kerakligi — bu muvofiqlashtirish va agregatsiya masalasi hisoblanadi. Misol uchun, sog‘liqni saqlash sohasida yaxshiroq natijaga erishish uchun bir nechta davlat idoralari va xususiy sektor o‘rtasidagi vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, ularni muvofiqlashtirish va natijalarni birlashtirish muhimdir [1; 412-bet].

Har bir davlat o‘zining rivojlanish tendensiyasini bosqichma bosqich o‘zgartirib, takomillashtirib borgani sari byurokratiya ham zamon bilan hamnafas o‘zgarib, yangi funksional vazifalar bajaruvchi ijro mexanizmini shakllantirib boradi. Ma’muriy islohotlar ya’ni davlat boshqaruv tizimi islohotlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u ham biz aytgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Ma’muriy islohotlar evolyutsiyasini har biri o‘ziga xos tushunchalar va nazariy asoslar to‘plami bilan ajralib turadigan, davlat va boshqaruvning jamiyatdagi roliga oid g‘oyalarning progressiv takomillashuvini aks ettiruvchi alohida tarixiy bosqichlar qatori sifatida tushunish mumkin. Ular quyidagi bosqichlar hisoblanadi:

- Byurokratiya: davlat tashkilotlarida iyerarxik tuzilmalarni o‘rnatish va rivojlantirish.

- Samaralilik: Jarayonlar va tartiblarni ratsionalizatsiya qilish orqali samaradorlik va maxsuldorlikni oshirish.

- Demokratlashtirish: qarorlar qabul qilish va boshqaruvda xalq vakillarining ishtirok etishni kengaytirish.

- Markazsizlashtirish: vakolat va resurslarni markaziy hukumatdan mahalliy darajalarga o‘tkazish.

- Raqamlashtirish: texnologiyani ma’muriy jarayonlarga integratsiyalash [3; 186-bet].

Zamonaviy dunyodagi ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning boshqaruv tizimida byurokratik ma’muriyat shakllarining yuqoridagi to‘rt ko‘rinishi asosli ravishda davlat apparatini takomillashtirish uchun joriy etilgan yoki bosqichma-bosqich shakllantirib borilmoqda.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, byurokratiya - bu insoniyat tarixida shakllangan eng barqaror va samarali boshqaruv tizimlaridan biri bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur singib ketgan. U faqat qog‘ozbozlik yoki ortiqcha rasmiyatchilik emas, balki davlatni tartibli, qonuniy va tizimli boshqarishning asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar davrida byurokratik boshqaruv shaklan o‘zgargan bo‘lsa-da, mohiyatan o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, u shunchaki zamonaviy vositalar yordamida yanada samarali, tezkor va shaffof tus olmoqda. Maks Veber ta’kidlaganidek, byurokratiya — bu jamiyatni shaxsiy manfaatlardan himoya qiluvchi, hokimiyatni tartib va qonun asosida taqsimlovchi mexanizmdir [4; 105-bet]. Bugungi kunda elektron hukumat tizimlari, ma’muriy islohotlar va davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari aynan shu mexanizmning yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonlar natijasida davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangi sifat darajasiga ko‘tarilmoqda.

Demak, byurokratiya bu — jamiyatdan ajralgan, biroq uni boshqaruvchi, tartibga soluvchi va rivojlanishga yo‘naltiruvchi tizimdir. U demokratiya, samaradorlik va raqamlashtirish tamoyillari bilan uyg‘unlashganda, davlat boshqaruvining eng mukammal shakliga aylanadi. Shunday ekan, kelajakda har qanday zamonaviy davlatning muvaffaqiyati aynan shu tizimni yangilab, uni xalq manfaatlariga yanada yaqinlashtirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Besley T., Burgess R., Khan A., Xu G. *Bureaucracy and Development. Annual Review of Economics* - 2022. 14.
2. Lea T. *Desiring Bureaucracy. Annual Review of Anthropology* - 2021. 50.
3. Otajonov E. *Ma’muriy islohotlar tarixi, kategoriyalari va uning nazariya sifatida rivojlanishi. Oriental Journal of History, Politics and Law – 2024.*
4. Weber, M. *Rationalism and Modern Society: New Translations on Politics, Bureaucracy, and Social Stratification.* Edited and translated by Tony and Dagmar Waters. Palgrave MacMillan – 2015.
5. Ажемўғли Д., Робинсон Ж. *Мамлакатлар таназзули сабаблари.* Тошкент - 2024.
6. https://gov.uz/oz/religions/activity_page/e_government
7. https://lex.uz/ru/docs/-3891616